

**INTERFAOL METODLARNING MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH
JARAYONIDAGI O'RNI****Mashrapov Qaxramon Olimjonovich****NamDTU tayanch doktoranti****Email: mashrapovqaxramonbek1987@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15725671>**

Annotatsiya: Ushbu maqolaning kirish qismida yurtimizda kadrlar tayyorlash sohasida amalga oshirilayotgan samarali ishlar, interfaol metodlardan foydalangan holda ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarning fikr-mulohazalari, yaratilgan o'quv adabiyotlari va ilmiy nashrlar tahlili bayon etilgan. Natijalar bo'limida esa taklif etilgan metod qo'llanilgandagi amaliy samaradorlik va natijalar tahlili yoritilgan.

Kalit so'zlar: talaba, omil, mehnat, korxona, metod, interfaol, mashg'ulot, bilim, ta'lim, dars, o'qituvchi.

Аннотация: Во вводной части данной статьи приведён анализ эффективной работы, проводимой в нашей стране в области подготовки кадров, изложены мнения учёных, проводивших научные исследования с использованием интерактивных методов, а также проанализированы созданные учебные пособия и научные публикации. В разделе с результатами представлены аналитические данные, отражающие эффективность предложенного метода на практике.

Ключевые слова: студент, фактор, труд, предприятие, метод, интерактивный, занятие, знание, образование, урок, преподаватель.

Abstract: The introduction of this article presents an analysis of the effective efforts being made in our country in the field of personnel training, the opinions of researchers who have conducted scientific studies using interactive methods, and a review of developed educational materials and scientific publications. The results section provides an analysis of the practical effectiveness of the proposed method.

Keywords: student, factor, labor, enterprise, method, interactive, lesson, knowledge, education, class, teacher

KIRISH

Albatta, bugungi kunda yurtimizda barcha sohalarda malakali kadrlar tayyorlash va ularning bilim salohiyatini oshirish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Bu sa'y-harakatlar bevosita Prezidentimiz tashabbuslari bilan olib borilayotganini ta'kidlash joiz. Bunga yaqqol misol sifatida davlat rahbarining quyidagi so'zlarini keltirish maqsadga muvofiq: *"Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni — bilim, ta'lim va tarbiya bo'ladi"* [2]. Bugungi kunda yurtimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni bilimli va zukko etib tarbiyalash yo'lida ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bo'lajak mutaxassislarni o'z yo'nalishlari bo'yicha chuqur bilimga ega qilib tayyorlash mas'uliyati, asosan, oliy ta'lim muassasalari zimmasiga yuklatilgan (o'rta maxsus kasb-hunar maktablari esa o'rta bo'g'in kadrlar tayyorlaydi).

OTMlarda ta'lim sifatini oshirish maqsadida an'anaviy, samaradorligi past metodlardan voz kechilib, zamonaviy va interfaol yondashuvlar asosida dars mashg'ulotlari olib borilmoqda. Bunga misol sifatida 2019-yil 8-oktabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **PF-5847-sonli farmoni** — *"O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"* [2] hujjatini keltirish mumkin. Mazkur hujjat asosida ko'plab

oliy ta'lim muassasalarida (harbiylashtirilgan OTMlardan tashqari) o'quv jarayonlari kredit-modul tizimiga o'tkazildi. Shubhasiz, yangi o'quv tizimi yosh kadrlarning bilimli va salohiyatli bo'lib yetishishiga zamin yaratdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

OTMlar o'quv jarayonida pedagogik texnologiyaning tarmoqlaridan biri bo'lgan interfaol metodlardan foydalanish talabning mutaxassisligiga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Pedagogik texnologiya qachon paydo bo'ldi? Pedagogik texnologiya atamasi va bu sohadagi ilk ishlanmalar AQSH da XX asming 50-yillarida paydo bo'ldi. Interfaol – inglizcha “inter” so'zidan olingan bo'lib, “orasida”, “o'rtasida” degan ma'noni anglatadi, ya'ni ikki narsa o'rtasidagi faollik degan ma'noni bildiradi. Interfaol metod – ta'lim jarayonida talabalar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali talabalarning bilimlarini o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. “Interaktiv” so'zi inglizcha, “Inter”- “o'zaro”, “akt”- “harakat, ta'sir, faollik” ma'nolarini bildiradi.

Ta'limda interfaol metod – bu talaba bilan o'qituvchi o'rtasida ta'lim dasturini o'zlashtirish demakdir. Mazkur metodlar hamkorlikda ishlash vositasida dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ular talabalarni mustaqil fikrlashga undaydi.

D.A.Alibekovning fikricha ta'lim jarayonini interfaol metodlar asosida tashkil etish quyidagi omillar asosida amalga oshiriladi:

1. Obyektiv omillar:

- ta'lim jarayoni uchun moddiy-texnik bazaning yaratilganligi;
- ta'lim jarayonida pedagogik monitoring tashkil etilganligi va uning adabiyotlar bilan ta'minlanganligi;

2. Subyektiv omillar:

- ta'lim jarayonining o'qituvchilarda interfaol metodlar mohiyatini o'rganishga nisbatan qiziqishning yuzaga kelganligi;
- ta'lim jarayonining o'qituvchilarning interfaol metodlar mohiyatidan xabardorligi;
- ta'lim jarayonining o'qituvchilarning o'z pedagogik faoliyatlarida interfaol metodlarni qo'llay olish mahoratiga ega ekanligi;
- o'qituvchilarda ijodkorlik, izlanuvchanlik, talabalar o'rtasida ko'tarinki kayfiyatni yarata olish sifatlarining mavjudligi;
- interfaol metodlar asosida pedagogik faoliyatni tashkil etayotgan o'qituvchilarni rag'batlantirib borish[4].

Amerikalik psixolog olimlar R.Karnikau va F.Makelrouning o'rganishlariga ko'ra shaxsning tabiiy fiziologik- psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda o'zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi. Ya'ni:

- shaxs manbani o'zi o'qiganida 10 %;
- ma'lumotni eshitganida 20 %;
- sodir bo'lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko'rganida 30 %;
- sodir bo'lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko'rib, ular to'g'risidagi ma'lumotlarni eshitganida 50 %;
- ma'lumot (axborot)larni o'zi uzatganida (so'zlaganida, bilimlarini namoyish etganida) 80 %;
- o'zlashtirilgan bilim (ma'lumot, axborot)larni o'z faoliyatiga tatbiq etganida 90 % xajmdagi ma'lumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega[3].

Interfaol metodlardan texnika OTMLaridan foydalanish bo'lg'usi muhandislarni bilim salohiyatini mustahkamlab, yetuk kadr bo'lib yetishishlariga, mehnat bozorida qiyinchiliksiz o'z mutaxassisliklari bo'yicha korxona (tashkilot)larda faoliyat yuritish uchun, ishga joylashishlariga, katta yordam beradi.

Interfaol usullarning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- talabalarni mustaqil, ijodiy, tanqidiy, mantiqiy fikrlashga o'rgatish;
- muammoli vaziyatni amaliy va hayotiy topshiriqlar asosida yechish;
- o'z-o'zini fikrlashga majbur etish;
- faollashtirish;
- talabalarni tashkilotchilik va yo'naltiruvchanlikka undash;
- do'stona munosabatlarni shakllantirish.

Interfaol usullardan foydalanish shakllari:

1. Individuallashtirish;
2. Kichik guruhlariga ajratish;
3. Tabaqalashtirish;
4. O'rgatish va o'rganish jarayonida demokratik, do'stona muhitni yaratish;
5. O'zaro muloqot, hamkorlikni tashkil etish.

Interfaol usullarni qo'llashda foydalanadigan vositalar:

1. Darsliklar, qo'shimcha o'quv adabiyotlar;
2. Texnik vositalar;
3. Tarqatma materiallar;
4. Multimedialar.

Quyida interfaol metodlarni bir nechta turlarini ko'rib chiqamiz:

Aqliy hujum metodi

Aqliy hujum - auditoriyadagi har bir talaba oldiga o'qituvchi qo'ygan savol yoki muammo yuzasidan o'z fikrini bayon etishga imkon beruvchi o'quv uslubidir. Uslub mohiyati "Bir kalla yaxshi, yigirma beshtasi undan yaxshi" prinsipi bo'yicha o'qituvchi tomonidan belgalangan muammo yoki savol yuzasidan extimol tutiladigan hamma fikrlar variantini bir yerga jamlay olishda bo'lib, istisno tariqasida ta'lim oluvchilarning barcha fikrlari, shu jumladan, aytarli to'g'ri bo'lmaganlari ham inobatga olinadi. Bu narsa bayon etilgan fikrlarning keyingi tahlilida talabalarning qo'yilgan savol yoki muammoni to'g'ri tushunishlariga imkon beradi.

Qo'llanilishi:

- savol, topshiriq yoki muammoni hal qilishda fikrlarni erkin aytishda;
- muammoni hal qilish qobiliyatini oshirishda;
- talabalarning faolligini oshirishda;
- fanga kirish va asosiy mavzu mazmunini bilib olishda.

Afzalligi:

- aytilgan fikrlar tanqid va muhokama qilinmasligi yoki baholanmasligi;
- talabalarning mazmunning ilmiyligiga chuqurroq jalb qilinishi;
- belgilangan vaqt doirasida barcha xohlovchilarga o'z fikrlarini bayon etish imkoniyatining berilishi.

BBB (Bilardim, bilmoqchiman, bilib oldim) metodi.

Bu metodni "Yangi bilim beruvchi tipidagi darsda foydalanish mumkin.

1- Qadam: Doskaga yangi mavzu yoziladi va talabalar daftarga "Bilardim" - deb yozib yangi mavzu bo'yicha bilganlarini, yozish taklif etilib buning uchun 3 daqiqa vaqt beriladi. Taqdimot o'tkazilib, shu jarayonda talabalar yangi mavzu bo'yicha bilgan ma'lumotlarini aytib beradilar. Taqdimot davomida fikrlarni guruhlar tomonidan qaytib takrorlamaslik qoidasiga qat'iy rioya qilinadi.

2-Qadam: talabalarga daftarlarga "Bilmoqchiman" – deb yozib yangi mavzu bo'yicha nimalarni bilishni xoxlashini yozish taklif etiladi. Buning uchun bir daqiqa vaqt beriladi. Taqdimot o'tkaziladi.

3-Qadam: talabalarga daftarlarga "Bilib oldim" - deb yozib qo'yib tushuganlarini o'n daqiqa ichida yozish taklif etiladi. Vaqt o'tgandan so'ng taqdimot o'tkaziladi. Yangi mavzu bo'yicha talabalar o'z fikrlarini bildiradilar. Barcha qadamlarda talabalar bir - birini tinglash qoidasiga rioya qiladilar. O'qituvchi tomonidan yangi mavzu bo'yicha aytilmasdan qolgan qismlari va qo'shimcha adabiyotlardan topilgan materiallardan foydalanib to'ldiriladi[8].

Zakovat o'yini – bu o'yinni o'tkazishda dastlab sinfxonani o'yinga moslashtirish lozim. O'yin ishtirokchilari test yordamida saralab olinadi. Yuqori ball olgan o'quvchilar o'yinda ishtirok etish huquqiga ega bo'ladilar. O'yin ishtirokchilari 6-8 kishidan iborat bo'ladi. Qolgan o'quvchilar esa o'yinni tomoshabin sifatida kuzatib turishadi. O'yin uchun mo'ljallangan savollar konvertga joylashtirib o'qib eshittiriladi. Guruh sardori savolni o'qib o'qituvchiga beradi. Javobni aniqlash uchun bir daqiqa vaqt ajratiladi. Bu vaqt orasida o'yin ishtirokchilari javobni maslahatlashib topishga harakat qilishadi. Bu o'yinni asosan yuqori sinfda o'tkazish tavsiya etiladi. Zakovat o'yinlarida asosan, o'rtaga muammoli savollar tashlanib, shu muammoni hal etishga diqqat qaratiladi[7].

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki interfaol metodlarni OTMLar dars mashg'ulotlarida qo'llash bugungi zamonaviy ta'lim ya'ni kredit-modul tizimi sharoitiga mos keladi. Bu fikrni ilgari surishimizga sabab bu yangi tizim ham talabani bilim olishga majbur etadi. Buning yakunida esa talabaning fanga bo'lgan qiziqish darajasi ijobiy bo'lishini ta'minlaydi. Interfaol metodlar ham talabani fanga bo'lgan qiziqishini oshirib, fanni chuqur o'rganishda ko'priik vazifasini o'taydi. Natijada talaba bilim, ko'nikma, malakaga ega bo'lib o'z sohasining yetuk mutaxassisiga aylanadi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabr PF-5847-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning o'z saylovoldi dasturida so'zlagan nutqlari 30-may 2023y.
3. Д.Рузиева, М.Усмонбоева, З.Хорликова Интерфаол методлар: мохияти ва қўпланилиши / Методик йўлланма - Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ нашриёти, 2013. - 136 бет.
4. Абдуллаева Нафиса Основы развития продуктивного мышления учащихся

Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития Москва - 2012. 326-327.

5. Z.K.Ismailova, P.M.Maxsudov, O.K.Ergashev "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" - Toshkent – 2020y.

6. N.X.Avliyaqulov, N.N.Musayeva Pedagogik texnologiya-Toshkent: Cho'lpon NMIU, 2012.208 b.

7. F.F.Aniyazova, N.D.Abdolnizayeva "Tarix fanini o'qitishda interfaol metod hamda didaktik o'yinlardan foydalanishning ahamiyati" "Ilm-fan muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida" mavzusidagi 1-sonli respublika ilmiy-onlayn konferensiyasi-2022y.

8. Mashrapov, Q., Yoqubjanova, Y., Djurayeva, D., & Xasanboyev, I. (2022). THE ROLE OF CREDIT-MODULE SYSTEM IN DEVELOPMENT OF STUDENTS' SPECIALTIES IN TECHNICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 1(6), 332-336.

9. Mashrapov, Q., & Xasanboyev, I. (2022). TEXNIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BILIM OLAYOTGAN TALABALARNING O'Z MUTAXASSISLIKLARI BO'YICHA YETUK KADR BO'LIB YETISHISHLARIDA KREDIT-MODUL TIZIMINING O'RNI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 1(6), 82-87.

10. Ergashev, Sh., & Mashrapov, Q. (2024, March). Conditions for the development of the credit-module system in technical higher education institutions. In *American Institute of Physics Conference Series* (Vol. 3045, No. 1, p. 030075).

11. <https://azkurs.org/pars>.

12. <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php>